

SUDLANGANLIK HOLATINING TUGALLANISHI VA SUDLANGANLIKNING OLIB TASHLANISH MUDDATLARINI HISOBLASHNING DOLZARB MASALALARI

Raximbayeva Munira Azad qizi

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Yuridika fakulteti 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada sudlanganlik holatining huquqiy ahamiyati, sudlanganlik holatining tugallanishi hamda sud tomonidan olib tashlanish muddatlari, ularni hisoblashning qonunchiligimizda keltirilgan asoslari, bu jarayondagi kamchiliklar va ularni bartaraf qilish uchun takliflar o'rin olgan.*

Kalit so'zlar: *sudlanganlik, jazoni amalda o'tash, jarima, axloq tuzatish ishlari, muddatidan ilgari shartli ozod qilish.*

CURRENT ISSUES OF CALCULATING THE TERMS OF THE COMPLETION OF THE CRIMINAL RECORD AND THE REMOVAL OF THE CRIMINAL RECORD

Abstract: *In this article, the legal significance of the criminal record, the terms of completion of the criminal record and removal by the court, the basis of their calculation provided in our legislation, shortcomings in this process and proposals for their elimination are included.*

Key words: *conviction, serving sentence, fine, correctional work, early parole.*

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ РАСЧЕТА СРОКОВ ПОГАШЕНИЯ СУДИМОСТИ И СНЯТИЯ СУДИМОСТИ

Абстрактный: *В данной статье изложены юридическое значение судимости, сроки снятия судимости и снятия судом, основания их исчисления, предусмотренные нашим законодательством, недостатки в этом процессе и предложения по их устранению.*

Ключевые слова: *осуждение, отбывание наказания, штраф, исправительные работы, досрочное освобождение.*

Har bir jinoyat sodir etgan shaxs, albatta, jinoiy javobgarlikka tortiladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 16-moddasiga ko'ra, jinoiy javobgarlik - jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan sud tomonidan hukm qilish, jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishida ifodalanadigan jinoyat sodir etishning huquqiy oqibatidir.

Sudlanganlik shaxsning sodir etgan jinoyati uchun hukm etilganligidan kelib chiqadigan huquqiy holatdir. Shunday qilib, qonun sudlanganlikni faqat shaxsning sodir etgan jinoyati uchun hukm qilinish fakti bilan baholaydi.

Shaxs Jinoyat Kodeksining Maxsus qismi moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha belgilari mavjud bo'lgan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etganlikda aybdor, deb topilib, ayblov hukmi e'lon qilingandan so'ng sudlangan, deb hisoblanadi. Ammo hukm qilinishning har qanday fakti ham sudlanganlikni keltirib chiqarmaydi.

Qonunga muvofiq sudlanganlik holati tugallanishi yoki olib tashlanishi muddatlarini (JK 78, 80-moddalari) hisoblash asosiy va qo'shimcha jazolar o'tab bo'lingan yoki sinov muddati o'tib bo'lgan kundan boshlanadi. Masalan, intizomiy qismga jo'natish, ozodlikdan mahrum qilish jazolariga qo'shimcha sifatida muayyan mansabni egallash yoki muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlangan holda, bu jazo qayd etilgan asosiy jazolarni o'tashning barcha vaqtiga tatbiq etilib, sudlanganlik holati tugallanishi yoki olib tashlanishi muddatlari esa qo'shimcha jazo o'tab bo'lingan paytdan boshlab hisoblanadi.

Jarima yoki axloq tuzatish ishi jazosiga hukm qilinib, boshqa jazo turiga almashtirilgan shaxsning sudlanganlik holati tegishli JK 78-moddasining "g, d, e, j" bandlarida ko'rsatilgan muddat o'tishi bilan tugallanadi. Bunday holda sudlanganlik holati muddatining tugashi JK 80-moddasi uchinchi qismiga muvofiq JK 44-moddasining uchinchi qismi yoki JK 46-moddasining to'rtinchi qismiga ko'ra belgilangan jazo turi o'talغان kundan boshlab hisoblanadi.

Jinoyat kodeksi 80-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq, ozodlikdan mahrum qilish joylaridan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan, shuningdek, jazosi yengilrog'i bilan almashtirilgan (JK 73, 74-moddalari) shaxsning sudlanganlik holati tugallanishi masalasini hal etishda sud tomonidan belgilangan jazo muddatidan emas, balki ozodlikdan mahrum qilish joylaridan ozod qilingan paytga qadar amalda o'talغان jazo muddatidan kelib chiqish lozim. Bunda sudlanganlik holatining tugallanish muddati ozodlikdan mahrum qilish joylaridan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxsga nisbatan JK 73-moddasi qo'llanilgan paytdan, jazosi yengilrog'i bilan almashtirilgan shaxsga nisbatan esa — JK 74-moddasiga muvofiq belgilangan yengilroq jazo o'talغان paytdan boshlab hisoblanadi.

Jinoyat kodeksi 80-moddasida belgilangan sudlanganlik holati tugallanishini hisoblash tartibi (amalda o'talغان jazo muddatidan kelib chiqqan holda jazo o'tab bo'lingan yoki jazoni o'tashdan ozod qilingan paytdan boshlab) yengilroq jazoni nazarda tutuvchi yangi qonun normasiga asosan jazosi qisqartirilgan shaxslarga nisbatan ham qo'llaniladi.

Sudlar shuni nazarda tutishlari lozimki, JK 80-moddasining to'rtinchi qismi sudlanganlik holatini tugatuvchi muddatning o'tishi to'xtatilganda sudlanganlik holati tugallanishiga oid qoidalarni belgilaydi.

Jazoni o'tab chiqqan shaxs sudlanganlik holati muddati tugamay turib yana jinoyat sodir etgan hollarda, sudlanganlik holatini tugatuvchi muddat to'xtatiladi.

Sudlanganlik holatini tugatuvchi muddatning o'tishi to'xtatilganda ilgari sodir etilgan jinoyat uchun sudlanganlik holati muddati shaxs yangi jinoyat uchun tayinlangan jazoni o'tab bo'lgandan so'ng yangidan o'ta boshlaydi, sudlanganlik holati

o'tayotgan davrda sodir etilgan yangi jinoyat uchun tayinlangan jazo og'irroq bo'lgan hollar bundan mustasno. Bunday holda sudlanganlik holatining tugallanish muddati yangi jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatidan kelib chiqib aniqlanadi.

Jinoyat qonuni mazmuniga ko'ra, sudlanganlik holatining tugallanish muddati jazo bilan, shu jumladan, bir necha jinoyatlar uchun (jinoyatlar yoki hukmlar majmui bo'yicha) tayinlangan jazo bilan bevosita bog'liq. Shaxsga jinoyatlar yoki hukmlar majmui bo'yicha (JK 59, 60-moddalari) jazo belgilashda barcha qilmishlarning og'irligini inobatga olib, uzil-kesil jazo tayinlanishi tufayli, bunday holda sudlanganlik holatining tugallanish muddati uzil-kesil jazo turi va muddatidan kelib chiqib hisoblanishi lozim.

Ayni paytda, agar jinoyatlar yoki hukmlar majmui bo'yicha sud tomonidan har xil turdagi, har qaysisi alohida ijro etiladigan jazo (JK 61-moddasining ikkinchi qismi) tayinlangan bo'lsa, sudlanganlik holatining tugallanish muddati jazo tizimida (JK 43-moddasi) nazarda tutilgan og'irroq jazo muddatidan kelib chiqib hisoblanadi.

Jinoyat-protsessual kodeksi 544-moddasining birinchi qismiga muvofiq, sudlanganlikni muddatidan ilgari olib tashlash to'g'risidagi iltimosnoma sudlanganlik holati mavjud shaxs, uning himoyachisi yoki qonuniy vakilining yoxud jamoat birlashmasi yoki jamoa tomonidan jazoni o'tab chiqqan shaxs yashash joyidagi tuman (shahar) sudiga berilishi mumkin.

Sudlanganlikni muddatidan ilgari olib tashlash masalasini hal etishda, sud sudlanganlik holati mavjud shaxsning qonunga itoatkor turmush tarzini tasdiqlovchi holatlarni (huquqbuzarlik mavjud emasligi, jazo o'tashdan ozod qilingandan keyingi xulq atvori, ishlash va yashash joyidan ijobiy tavsifnomalar, ichki ishlar organi axborot markazi ma'lumotnomasi mavjudligi va hokazolar) aniqlashi zarur.

Sudlanganlikni olib tashlash to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqishda illimosnoma kim haqida berilgan bo'lsa, shu shaxsning sud majlisida qatnashishi shart. U himoyachi olish huquqi bilan ta'minlanadi. Sudlanganlikni olib tashlash to'g'risidagi iltimosnoma jamoat birlashmasi yoki jamoa tomonidan berilgan bo'lsa, ularning vakillari sud majlisida ishtirok etishi shart. Sudlanganlikni olib tashlash to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish taqdim qilingan illimosnomani o'qib eshittirishdan boshlanadi, so'ng sudya sudda hozir bo'lganlarning fikrlarini eshitadi va ajrim chiqarish uchun alohida xonaga kiradi.⁵

Jinoyat-protsessual kodeksi 544-moddasining to'rtinchi qismiga muvofiq, sudlanganlikni muddatidan ilgari olib tashlash to'g'risida takroriy iltimosnoma uni rad etish to'g'risidagi ajrim chiqarilgan kundan boshlab kamida bir yil o'tgandan keyin berilishi mumkin.

Sudlanganlikni muddatidan ilgari olib tashlash to'g'risidagi ajrim hukm chiqargan sudga va ichki ishlar organlarining axborot markaziga yuborilishi lozim.

⁵ Sudlanganlik qanday olib tashlanadi? www.civil.uz

Sudlanganlik holati tugallanishi va olib tashlanishi muddatlarini to'g'ri hisoblash uchun sudlanuvchining shaxsiga oid ma'lumotlarni o'rganish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda, ishni sudda ko'rish uchun tayinlash chog'ida sudlar ish materiallarida ichki ishlar organlarining axborot markazidan, shu jumladan sudlanuvchining tug'ilgan va doimiy yashash joyidan olingan ma'lumotnomalar mavjudligini tekshirishlari, sudlanuvchiga nisbatan muqaddam chiqarilgan hukmlar, muddatidan ilgari shartli ozod qilish, jazoni yengilrog'i bilan almashtirish va h.k.lar to'g'risidagi ajrimlarni talab qilib olishlari va sinchiklab o'rganib chiqishlari lozim.

Sudlar hukm chiqarish vaqtida sudlanuvchining sudlanganlik holatiga oid ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Sud hukmi to'g'risida"gi 2014-yil 23-maydagi qarorining 15-bandida berilgan tushuntirishlarga rioya etgan holda to'g'ri aks ettirishlari lozim.⁶

JK 80-moddasi 2-qismiga ko'ra, shaxs tayinlangan jazodan muddatidan ilgari ozod etilganda yoxud jazo yengilrog'i bilan almashtirilganda, sudlanganlik muddati, muddatidan ilgari ozod qilingan yoki yengilrog'i bilan almashtirilgan jazoning amalda o'tab bo'lingan qismidan hisoblanadi. Qonunda ko'rsatilishiga muvofiq bunday holatlarda, sudlanganlik holatining tugallanishi, shaxsni muddatidan ilgari ozod qilingan yoki yengilrog'i bilan almashtirgunga qadar bo'lgan davrda amalda jazoni o'tash muddatidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Jazoni amalda o'tash deb, muddatidan ilgari ozod etilganda, sud hukmiga asosan belgilangan jazoning o'talgan qismi tan olinishi lozim. Masalan, agar shaxs olti yilga ozodlikdan mahrum qilingan bo'lsa, ammo JK 73-moddasiga binoan to'rt yildan so'ng muddatidan ilgari ozod etilsa, unda sudlanganlik muddati jazo o'talgan vaqtdan kelib chiqib, ya'ni to'rt yil deb belgilanadi. Agarda, shaxsga jazodan ozod qilish tartibida JK 74- moddasiga asosan boshqa yengilroq jazo bilan almashtirilganda, jazoni amalda o'tash muddati, birlamchi o'talgan jazo muddatini va yengilroq jazo muddatini qo'shish bilan hisoblanadi. Bunday vaziyatda turli xildagi jazolarni qo'shishda JK 61-moddasida nazarda tutilgan qoidalardan kelib chiqish lozim.

JK 80-moddasi 3-qismi birlamchi belgilangan jazo uni bajarishdan bosh tortganligi uchun o'zgartirilgan vaziyatlarda, jazo o'tash yoki sudlanganlikni olib tashlashni aniqlash qoidalarini belgilaydi. Bunday vaziyatlarda, birlamchi jazoni JK 44- va 46-moddalarida ko'rsatilganidek yengilrog'iga almashtirishni taqozo etadi. Bunday vaziyatda o'tash muddati yoki sudlanganlikni olib tashlash amaldagi jazo o'tash yoki jazoning bajarilishidan kelib chiqib, bir-biridan mustaqil ravishda sudlanganlik muddatini mos ravishda ajratish orqali muddatni hisoblash lozim bo'ladi. O'tash muddati yoki sudlanganlikni olib tashlash alohida, birlamchi tayinlangan jazodan va bajarilmagan, birlamchisi o'rniga tayinlangan jazodan kelib chiqib aniqlangan bo'lishi lozim. Agar jazoni o'tab chiqqan shaxs sudlanganlik holatining muddati tugamay yana jinoyat sodir etsa, sudlanganlik holatini tugatuvchi muddatning o'tishi to'xtatiladi.

⁶ "Sudlanganlik holatining olib tashlanishi va tugallanishiga oid qonunchilikni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Oliy Sud Plenumi Qarori, 18.09.2015 yil 13-son, www.lex.uz

Ilgari sodir etilgan jinoyat uchun sudlanganlik holatining tugash muddati oxirgi sodir etilgan jinoyat uchun (asosiy va qo'shimcha) jazoni amalda o'tab bo'lganidan boshlab hisoblanadi (JK 80-moddasi 4-qismi).

Aniqroq qilib aytsak, shaxs yangi jinoyat uchun jazoni o'tab kelganidan so'ng, parallel ravishda ham birinchi jinoyat uchun, ham yangi jinoyat uchun sudlanganlik holatini tugatish muddati o'tadi. Shuni nazarda tutish kerakki, shaxs sodir etgan bir necha jinoyat uchun hukm qilingan vaziyatda, sudlanganlik holatining tugash muddati har bir jinoyat uchun alohida emas, balki hamma jinoyatlar uchun tayinlangan jazodan kelib chiqib hisoblanadi.⁷

Sudlanganlik instituti bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri bulib, insonga qo'llanilayotgan jazolarning natijalari uning hayotiga qay darajada ta'sir etishi bilan bog'liqdir.

Sudlanganlik institutining nazariy va amaliy qoidalarini o'rganib shunday xulosaga keldimki, sudlanganlik jinoyat huquqining muhim institutlaridan biri bo'lib, undan voz kechish mutlaqo mumkin emas. Chunki sudlanganlik holati:

birinchidan, ko'p hollarda jazoni o'tab chiqqan shaxslarni zarur hollarda tarbiyalash choralarini davom ettirish imkoniyatini beradi;

ikkinchidan, jazoni o'tash vaqtida to'g'ri yo'lga qaytmagan shaxslarni jazoni o'tab bo'lganidan keyin ham nazorat qilish va halol mehnat yo'lga o'tib olishiga yordam berish sharoitini yaratadi;

uchinchidan, jazodan ozod bo'lib kelgan shaxs davlat idoralari va jamoatchilikning nazorati ostida bo'lgani uchun, unga yana nosoz turmush tarziga o'tib olish imkoniyati berilmasligi mumkin;

to'rtinchidan, jazodan ozod bo'lib kelgan shaxsda ishga joylashish va turmushini tiklab olishda davlat yoki jamoatchilik yordamidan foydalanish imkoniyati bo'ladi;

beshinchidan, shaxs yana jinoyat sodir qilsa, uning uchun qanday og'ir oqibatlar kelib chiqishini bilgani uchun ham bundan o'zini asraydi. Bu holatlar esa o'z-o'zidan sudlanganlik institutining huquqiy ahamiyatini ko'rsatib beradi.⁸

Sudlanganlikni olib tashlash yoki uning tugallanishining huquqiy oqibatlari juda ham muhim hisoblanadi. Chunki jinoyat sodir etgan va hukm qilingan ota-onalarning sudlanganlik holati ularning farzandlariga ta'sir qiladi. Albatta, yaxshi o'qigan, oliy dargohdarni tugatgan, kelajakda davlatga xizmat qilaman degan yosh avlodlarimiz o'zlarining orzu-niyatlariga yetishlari, ularga bunday holatlar to'sqinlik qilmasligi kerak.

Sudlanganlik institutini rivojlantirish va globallasuv jarayoniga mos ravishda tashkil qilish bo'yicha quyidagi takliflarni keltirib o'tishni maqsadga muvofiq deb bildim:

⁷ Jinoyat huquqi (Umumiy qism) o'quv qo'llanma. Ochilov X.R. - Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish, 2022-y. - 176 bet.

⁸ S. Niyozova. Sudlanganlikni olib tashlash huquqingiz bor, Risola. - T.; TDYU nashriyoti, 2021. - 25 b.

1) Sudlanganlik holatining ahamiyati shundan iboratki, jinoyat sodir etgan shaxs sud tomonidan tayinlangan jazoni o'tab chiqqach, unda ayrim o'zgarishlar bo'lishi inkor qilinmaydi. Aksariyat hollarda ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasalarida jazoni o'tab chiqqan mahkumlar jamiyat uchun ayrim salbiy jihatlarni o'zlashtirib qaytishadi. Koloniyalarda turli toifadagi jinoyatchilar bilan birga bo'lish o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Bundan tashqari jazoni o'tab bo'lgandan keyin ham ba'zi mahkumlarda alamzadalik juda uzoq vaqt saqlanib qoladi. Bunday holatga tushishiga boshqalarni aybdor deb biladi va qasos hissi ularni tez tark etmasligi mumkin. Natijada jazoni o'tab qaytgan mahkumning yana jinoyat qilish vaziyatlari vujudga keladi. Sudlanganlik bu kabi holatlarni kamaytirish, mahkumning erkin hayotga to'la moslashib olishi uchun qulay omil vazifasini bajaradi. Ushbu muammoni hal qilishning yechimi sifatida va shaxsning ijtimoiylashuviga ko'maklashish maqsadida O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining 78,79-moddasida ko'rsatilgan sudlanganlikning tugallanish va olib tashlanish muddatlarini qisqartirish kerak.

2) Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarni sodir etganlik uchun jinoiy jazoni o'tagan shaxslarning ijtimoiy xavfliligi pastligi sababli sudlanganlik va unga bog'liq barcha huquqiy oqibatlarni olib tashlash taklif etaman. Bu ma'lum darajada ushbu huquqiy institutning repressivligini pasaytiradi va shaxsning qayta ijtimoiylashuvi muammosiga ko'proq ijobiy ta'sir ko'rsatadi va shuning uchun jinoyatlarning takrorlanish ehtimolini kamaytiradi. Bundan maqsad sudlanganlik va unga bog'liq barcha huquqiy oqibatlarni olib tashlab, ushbu turdagi jinoyatni sodir qilgan shaxslarning davlat hokimiyati organlarida yoki davlat ishtirokidagi tashkilotlarda, o'quv muassasalarda faoliyat yuritishi ta'minlansa, ularning bilim, ko'nikma, salohiyatidan, ilmiy darajasidan foydalangan holda mamlakatimizni rivojlanayotgan davlatlar qatoridan rivojlangan davlatlar darajasiga chiqarishimiz imkoniyati yana bir marotaba oshadi, shuningdek ko'plab ilmiy kadrlar yetishtirib chiqara olamiz. Bu jarayon albatta probatsiya organlari nazorati ostida kechishi maqsadga muvofiq.

3) Reabilitatsiya instituti to'g'risidagi normani jinoyat kodeksida ham mustahkamlanishi inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash yo'lida yana bir poydevor bo'ladi. Xalqaro maydonda reabilitatsiya amaliyotining qo'llanilishi shuni ko'rsatadiki, ularning jinoyat qonunchiligida quyidagi norma mustahkamlangan: "Jinoyat sodir etmagan va hech qanday asossiz jinoiy ish qo'zg'atilgan yoki qonunga xilof ravishda hukm qilingan shaxs reabilitatsiya qilinadi, ya'ni sud jinoyat ishini asossiz yoki qonunga xilof jazo qo'zg'atgan faktini tasdiqlaydi.

Reabilitatsiya qilingan shaxsning barcha huquqlarini tiklashga majbur."⁹

⁹ Tojikiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 85-moddasi www.derechos.org

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

I. Qonun va qonunosti hujjatlari:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023 yil) www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (2023 yil 1 maygacha bo'lgan o'zgarish va qo'shimchalar bilan) www.lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi (2023 yil 1 maygacha bo'lgan o'zgarish va qo'shimchalar bilan) www.lex.uz
4. "Sudlanganlik holatining olib tashlanishi va tugallanishiga oid qonunchilikni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Oliy Sud Plenumi Qarori, 18.09.2015 yil 13-son, www.lex.uz

II. O'quv va ilmiy adabiyotlar:

1. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 2. Jazo haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan. – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 335 bet.
2. Jinoyat huquqi(Umumiy qism) o 'quv qo'llanma. Ochilov X.R.- Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish, 2022-y. - 176 bet.
3. S. Niyozova. Sudlanganlikni olib tashlash huquqingiz bor, Risola. - T,: TDYU nashriyoti, 2021. - 25 b.
4. D.J. Suyunova. Oqlanish va reabilitasiyaga erishish xuquqingiz bor. Risola. - T,: TDYU nashriyoti, 2021. - 30 b

III. Xorijiy adabiyotlari:

1. Tojikiston Respublikasi Jinoyat kodeksi www.derechos.org

IV. Internet saytlari:

- 1 Sudlanganlik qanday olib tashlanadi? www.civil.uz
- 2 Sudlanganlik institutining huquqiy tartibga solish usuli. Sudlanganlik institutini qo'llash va olib tashlashning dolzarb masalalari. www.avtozvuk174.uz